

**NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA RIVOYATLARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI**

Nodira Xikmatovna Azimova

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Zarmed Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivoyatlarning bolalar ongida shakllanishi, ularda kelajakka ishonch, o'tmishga muhabbat ruhini mustahkamlash lozimligi bayon etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirishda, bolalarga yaxshilik, insonparvarlik, mardlik, jasorat, o'zaro hurmat kabi xislatlarni tarbiyalashda rivoyatlarning ahamiyati va ulardan nutq o'stirish mashg'ulotlarida foydalanish texnologiyalari izohlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *rivoyat, ma'naviyat, qadriyat, adabiyot, muhabbat va sadoqat, To'maris, Shiroq, xalq qahramonlari, ta'lim-tarbiya*

Азимова Нодира Хикматовна

*Независимый исследователь Бухарского государственного
университета,*

Преподаватель Университета Зармед

Аннотация: *В данной статье описывается важность формирования нарративов в сознании детей, укрепления веры в будущее и любви к прошлому. Объясняется значение повествований в приобщении детей дошкольного возраста к национальным и духовным ценностям, в воспитании у детей таких качеств, как доброта, человечность, храбрость, мужество, взаимоуважение, а также технологии их использования в речевом обучении.*

Ключевые слова: *нарратив, духовность, ценность, литература, любовь и верность, Томарис, Широқ, герои, образование.*

Nodira Khikmatovna Azimova

Independent student of Bukhara State University,

Zarmed University teacher

Annotation: *This article describes the importance of shaping narratives in children's minds, strengthening faith in the future and love for the past. The importance of narratives in introducing preschool children to national and*

spiritual values, in nurturing in children such qualities as kindness, humanity, courage, mutual respect, as well as technologies for their use in speech teaching is explained.

Key words: *narrative, spirituality, value, literature, love and fidelity, Tomaris, Shirok, heroes, education.*

Mamlakatimiz istiqbolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimiz yaratgan og'zaki ijodlarni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga favqulodda katta ahamiyat berildi.

Rivoyatlar bolalar ongida yoshlikdan shakllanadi. Va ularning ongida kelajakka ishonch, o'tmishga muhabbat ruhini shakllantiradi. Shuning uchun ham rivoyatlarni yosh avlod hayotidagi o'rnini mustahkamlab yanada sayqallantirib bormog'imiz darkor.

Ma'lumki har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va ta'lim – tarbiya tashkilotlarida shakllantiriladi. Bunda esa adabiyotning o'rni katta. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Inson qalbini, uning dard-tashvishlarini, xalqning orzu- intilishlari, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no- mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharafli ekanini barchamiz yaxshi bilamiz"- degan edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy - ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirishda ota – bobolarimiz tomonidan tarbiya tizimida keng qo'llanib kelingan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning aql – zakovatini hisobga olgan holda ta'lim – tarbiya berishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali ko'zlangan maqsadga erishish eng samarali usul hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasida tarbiya vositalari, omillari va asoslarining hech bir jihatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Rivoyat - xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar. Rivoyat (arab. - hikoya qilmoq) voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydurmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya, folklor janri. Bola rivoyatlardagi lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi g'oyalarni anglasa, zulm va zo'rlik, haqsizlik va adolatsizlik singari illatlarga qarshi kurashadi, tarixiy shaxslar haqidagi so'nmas ma'lumotlarga ega bo'ladilar. To'maris, Shiroq, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn

Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud singari xalq qahramolari bilan bog'liq bo'lgan voqealar, rivoyatlarda aks etib, axloq – odob normalarini tashkil etadi. Rivoyatlar xalq diliga jo bo'lgan adolatli rahnamoni istash, adolatsiz zolimlarni inkor etish kabi g'oyalarni bola ongiga singdirish yo'llarini ochib chiqishni asos qilib oladi. Rivoyatlar asosida bolalarda tariximizning boy o'tmishiga nisbatan qiziqish uyg'otib, tafakkur va malakalarni yanada boyitib borish orqali ularni komil inson qilib tarbiyalash yo'lga qo'yiladi. Umuman olganda, rivoyatlar xalq tarixi, uning estetik qahramonlarini o'rganishda zarur bo'lgan og'zaki ijod janri hisoblanadi.

Yurtimiz tarixida ro'y bergan eng qadimgi ibratli voqea haqida rivoyat eradan avval mustaqillik uchun jon fido qilgan To'maris va Shiroq nomi bilan bog'liqdir. To'marisning Kirni mag'lub etib, o'ldirgani va Shiroqning yakka o'zi Doro qo'shini ustidan g'alaba qozongani, ularning mardligi, dovyurakligi va vatanga bo'lgan muhabbati, yurtining himoyasi uchun jonini fido qilishdek jasorati haqida aytib o'tish maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z ona-Vataniga nisbatan sadoqati, mehr-u muhabbatini tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Agar To'maris harbiy san'ati bilan yurti asragan bo'lsa, Shiroq burun, quloqlarini kesib, go'yo Doro tarafida bo'lgani uchun o'zini jazolagandek qilib ko'rsatadi, shoh ishonchini qozonadi va eron qo'shinlarini sahroda adashtirib o'z maqsadiga erishadi va yurtini qonxo'r, razil dushmanlardan ozod qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadriyatlarni singdirishda boy va sermazmun o'tmishimizga tayanishimiz va ular orqali har bir yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda xalqimizning tarbiya borasidagi fikrlariga amaliy o'gitlariga xalq pedagogikasiga tayanib ish ko'rish har doim ham dolzarb muammo bo'lib qolaveradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga rivoyatlar asosida tarbiya berish o'tmishdagi ota-bobolarimizning axloq - odoblari, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, ezgu – niyatliliigi, mardligi, insoniyligi va shu kabi boshqa ijobiy fazilatlarini yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Ma'lumki, hikoyat va rivoyatlar xalq ichida og'izdan – og'izga o'tib yuradi va xalqimizning ma'naviy boyligiga aylanadi. Shu sababli ham bolalar ma'naviy tarbiyasida ulardan foydalanish ijobiy pedagogik samaralarni beradi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Bu o'rinda rivoyatlar ko'pincha ibrat – namuna sifatida qo'llaniladi.

Chunki, rivoyatlarda aytilishicha, ularda yaxshi va yomon xislatlar, pand – nasihatlar qilingan, ezgu ishlar hikoyat qilinadi. Demak, rivoyatlardan bolalarga tarbiya berishda bemalol foydalansa bo'lar ekan. Misol uchun "Non isi" rivoyatini olaylik. Rivoyatda sulton Husayn Boyqaroning o'z

vazirlariga dunyodagi eng qadrlil va yoqimli hidli narsani topib kelishni topshiriq berishi, saroy ahlining sultonga yer yuzidagi jamiki xushbo'y narsalarni muhayyo qilishi, lekin Boyqaro istagan hidni topa olishmagani bayon etilgan. Oxiri Navoiyning oldiga yordam so'rab borishadi, uning ham boshi qotib, bir dehqondan so'ragan ekan, u kishi "Dunyoda eng lazzatli va yoqimli hid – qayroqi bug'doy unidan yopilgan tandir non, hech qaysi hid unga yetolmaydi" – deya maslahat berdilar. Navoiy xursand bo'lib, dehqonning aytganini qilibdi va bir savat non yoptirib, saroyga boribdi. Husayn Boyqaro nonlarni ko'rib, "Ko'nglim qo'msayotgan narsani topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko'ra yoqimliroq hid yo'q" deya Navoiyga rahmat aytadi va dehqon boboga bosh-oyoq sarpo berishni buyuradi.

Bu rivoyat orqali bolalarning non haqidagi tasavvurlari kengaytirilib, nonni aziz bilib, uni ehtiyotlash kabi an'analarga amal qilish o'rgatiladi. Nonning dasturxonimizga yetib kelgunga qadar bosib o'tgan uzun yo'li haqida tasavvurlar shakllantiriladi. Bolalarga non haqidagi xalq maqollari o'rgatiladi. Nonning qaysi geometrik shaklga o'xshashi, tevarak – atrofdan shu shaklga o'xshash narsalar rasmini topib chizishlari so'raladi. Har bir rivoyatni bolaning ongiga singdirish uchun tarbiyachidan bir necha faoliyat turlarini tashkillashtirishi va bolalar fikrini bemalol bayon etishi uchun ular bilan ko'proq muloqotlar olib borishi talab etiladi.

Shunday ekan, bolalikda berilgan tarbiya bolaning butun hayoti davomida abadiy yo'ldosh bo'lib qolaveradi. Insondagi insonparvarlik – bu tabiat ato qilgan his, mol-dunyodan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan odamiylikdan ham iboratdir. Shuni aytish lozimki, bolalardagi insonparvarlik uning odobi orqali amalga oshadi, ma'lumki har qanday odobli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar bolalar jamiyatimizning eng ishonchli kishilaridir.

Shuni unutmashimiz lozimki, Vatan va xalq faravonligi uchun buyuk yangiliklar, kashfiyotlar yarata oladigan, uning o'tmishi, buguni va ertasini kafolatlay oladigan qudratli va zabardast farzandlarga aynan ana shu tarbiyachi, o'qituvchi, pedagoggina yagona tayanch va ishonch bo'la oladi. Bu narsa barcha pedagoglar uchun yuksak ma'suliyatdir.

Xulosa qilib aytganda, rivoyatlarning bolalar ongida shakllanishi, ularda kelajakka ishonch, o'tmishga muhabbat ruhini mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirishda, bolalarga yaxshilik, insonparvarlik, mardlik, jasorat, o'zaro hurmat kabi xislatlarni tarbiyalashda rivoyatlarning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Safarov O. Folklor – bebaho xazina. T.: Muharrir. 2010

Asotirlar va rivoyatlar. T., 1990.

Bobolardan qolgan naqlar. T., 1998.

Internet saytlari